

2. Kurilo N.A. Sokrasheniya v sovremennom angliyskom yazike: funktsionalniy aspekt. – Minsk, 2005.

3. Eldorjon Y. Shermatov (2023). Principles of teaching a foreign language to journalism students using LMS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(04), 7–12. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/23042>

4. Shermatov Eldor Yovmuddinovich. Specific training of professional vocabulary of the English language for students of journalism. Theoretical & Applied Science 9 (2020): 467-470.

5. Tolibova G.R. (2024). Issues of Intensive Teaching of Foreign Languages. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 488–490. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/6499>

UNDALMALARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Jetkerbay SEYTJANOV

filologiya fanlari nomzodi, professor

Berdaq nomli Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. Tilda insonning dunyodagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlaridan tashqari, uning o'sha narsalarga bo'lgan munosabati ham aks etadi. Bunday munosabatlar, ayniqsa, undalmalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Munosabat ifodalash bo'yicha ingliz va o'zbek tillaridagi undalmalar bir-biridan keskin farq qiladi. Bu tafovut ildizlari ingliz va o'zbek xalqlari madaniyati o'rtaсидаги о'зига хосликка бориб тақалади.

Kalit so'zlar: undalma, lingvistika, madaniyat, so'z birikmasi, til va nutq, ritorika, gap bo'laklari.

Hozirgi amaliy grammatika bo'yicha darsliklarda undalmalarga juda kam o'rin ajratilgan. Fikrimizcha, yangi yoziladigan darsliklarda uni kengroq yoritish zarur, chunki, hozirgi zamon chet til o'qitish metodikasida faqat tilni emas, shu orqali o'rganilayotgan xalqning madaniyatini ham o'zlashtirish talab qilinmoqda. Undalmalar tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatining bir qismini ifodalaydi. Nutq qaratilgan shaxs yoki narsa, ya'ni undalma ifodalagan shaxs yoki narsa so'zlovchi nuqtai nazaridan ijobjiy, salbiy va neytral bo'lishi mumkin. Ijobiy munosabat ikkiga bo'linadi:

- 1) erkalashni ifodalovchi undalmalar;

2) hurmatni ifodalovchi undalmalar. Undalmalarda erkalashni ifodalovchi vositalar morfema, so‘z va so‘z birikmasi bo‘lishi mumkin.

Undalmalar kichik sintaktik tizimni hosil qiladi. Bu tizim ichidan nutq jarayonida ma’lum bir undalma shaklini tanlab olish nutq vaziyatiga, kommunikantlarning ijtimoiy maqomlariga, yoshiga, bir-birlarini yaxshi tanishiga, do‘stonalik munosabati darajasiga, qarindoshlik darajasiga, jinsiy farqiga, axloqiga, kayfiyatiga, millatiga, suhbat mavzusiga, bir-biriga nisbatan turgan masofasiga, muloqot davrida nutq qaratilgan shaxsning ko‘rinib turganligi yoki ko‘rinmayotganligiga, muloqot joyiga, tinglovchining ismi so‘zlovchiga noma’lum bo‘lganligiga bog‘liq holda tanlanadi. Demak, undalmani muloqotda tanlash va uni tushunish kommunikantlardan muayyan bilimni talab qiladi. Undalmani noo‘rin tanlash kommunikantlar o‘rtasida ziddiyat tug‘dirishi mumkin. Chet tilni o‘sha tilda gapuruvchi millatning madaniyatini yaxshi o‘rganmasdan to‘liq tushunib bo‘lmaydi.

Undalma to‘g‘ri tanlansa, muloqot muvaffaqiyatli o‘tish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ma’lum kontekstda kelgan undalmalar yondosh gap bilan yoki uning bo‘laklari bilan semantik munosabatga kirishadi. Bu munosabat undalma va gap bo‘laklari ifodalagan referentlar (denotatlarning) aynan bir xilligida sodir bo‘ladi. Inglizzabon xalqlar xizmat xati yozganda asosiy matnni albatta undalma bilan boshlaydi. O‘zbek tilida esa bunday xatlar undalma bilan yoki undalmasiz boshlanishi mumkin.

Har ikkala tilda undalma ifodalagan adresat inson yoki insondan boshqa narsa bo‘lishi mumkin. Ikkinchisi holatda “jonlantirish” hodisasi ro‘y beradi.

Undalmalar so‘z va so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Undalmani anglatgan so‘z ot, otlashgan sifat, otlashgan sifatdosh, otlashgan ravishdosh (o‘zbek tilida), olmoshlar bilan ifodalanadi. Otlarning ko‘pchiligi antroponimlar bo‘lib ular ichida ismlar keng tarqalgan. Aytish lozimki, o‘zbek xalqidan farqli o‘laroq ingliz xalqi uy hayvonlariga kishi nomlarni qo‘yadi.

So‘z birikmasi bilan ifodalangan undalmalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ergashgan so‘z birikmasi bilan ifodalangan undalmalar;
2. Bog‘langan so‘z birikmasi bilan ifodalangan undalmalar.

Bog‘langan so‘z birikmasi bilan ifodalangan undalmalarni o‘z navbatida yana kichik ikki guruhga bo‘lish mumkin:

a) takroriy undalmalar: bunday turdagি undalmalarning referenti (denotati) bitta, ya’ni ifodalagan shaxs bitta bo‘ladi.

b) uyushgan undalmalar: bu turdagи undalmalarda esa, referentlar (denotatlar) soni ko‘p bo‘ladi, ya’ni bir qancha shaxs bo‘ladi.

Undalmalar bir qancha omillarga bog‘liq holda gapning boshida, o‘rtasida va oxirida ishlatiladi.

Statistik hisoblashlarga ko‘ra ikkala tilda ham prepozitiv undalmalar boshqa turlarga qaraganda ko‘p uchraydi. Ulardan keyingi o‘rinda postpozitiv va interpozitiv undalmalar turadi.

Undalmalar chaqiriq, shior, xitob, buyruqlarda, notiqlar nutqi, tabrik va ta’ziya nutqlarida, maktublarda prepozitiv holatda keladi.

Tilda narsalar va voqealarni ifodalashdan tashqari ularga nisbatan munosabat ham ifodalanadi. Bunda undalmaning ahamiyati muhimdir. Undalmada ifodalangan munosabat uch xil bo‘lishi mumkin: ijobiy, salbiy va neytral.

Ijobiy munosabatni ifodalovchi undalmalarni ikkiga bo‘lish mumkin: 1) erkalashni ifodalovchi undalmalar va 2) hurmatni ifodalovchi undalmalar. Ular soni, ma’nosisi, strukturasi, ishlatilishi jihatidan ikki tilda juda katta farq qiladi.

O‘zbek tili ingliz tilidan erkalash ma’nosini ifodalovchi morfemalarning ko‘pligi va rang-barangliligi bilan farq qiladi. Ularning ko‘pchiligi jinsni (gender) ifodalaydi.

Ikkala tilda ham shirinlikni ifodalovchi so‘zlar ko‘chma ma’noda odatda erkalash ma’nosini ifodalaydi. (ingliz tilida ***honey, sweetie, sugar***, o‘zbek tilida ***asalim, shakarim, novvotim***).

Bunday holatlarda ma’no ko‘chishi hodisasi ro‘y beradi. Ingliz tilida novvot so‘zi bo‘lsa ham, u erkalash ma’nosini ifodalash uchun ishlatilmaydi.

Ingliz tilida erkalash ma’nosni ***love, darling, sweetheart, child, eagle, handsome, beautiful, true***, o‘zbek tilida ***jonim, malikam, sevgilim, aylanay, o‘rgilay, tasaddiq, xo‘jam, xonim, jigarim, do‘mbog‘im, go‘zal(im), bo‘g‘irsog‘im, qo‘zim/qo‘zichog‘im***,

mehribonim, oppog‘im, farishtam, tentagim/tentakcham, gulim, yorim, chirog‘im, polvon, erkam, burgutlarim, qorako‘z(im), shunqorlarim, yagonam, do‘ndiqcham, jonon kabi so‘zlar yordamida ham ifodalanadi.

Do‘mbog‘im, bo‘g‘irsog‘im, qo‘zim/qo‘zichog‘im, oppog‘im so‘zlarini ona o‘z bolasiga nisbatan ko‘p ishlatadi. Aytish lozimki, o‘zbek madaniyatida go‘dakning to‘laligi ingliz madaniyatidan farqli o‘laroq ijobiy hisoblanadi. **Bo‘g‘irsoq** so‘zi esa umuman ingliz tilida yo‘q, ya’ni u lakuna hisoblanadi.

Jonim, malikam, sevgilim, farishtam, gulim so‘zlarini odatda oshiq kishi sevgilisiga nisbatan qo‘llaydi. Bu so‘zlarni oilada yonida farzandlari bo‘lmaganda er xotiniga nisbatan ham ishlatishi mumkin.

Yorim o‘zbek tilida odatda she’riyatda va qo‘schiqlarda foydalaniladi. **Xonim** rafiqasiga nisbatan qo‘llanilsa erkalash, begona va chet ellik ayolga nisbatan ishlatilsa, hurmat ma’nosini ifodalaydi.

Erkalashni ifodalovchi so‘z birikmalar o‘zbek tilida **ijobiy munosabati ifodalovchi so‘z+qarindoshlik ifodalovchi ot+egalik qo‘sishimchasi** qolipi yordamida yasaladi. **Jon bolam, jon amaki, asal qizim, ona qizim** kabilar. Ingliz tilida bu vazifani **my+shaxs ifodalovchi ot** qolipi asosida yasalgan vositalar bajaradi: **my friend, my boy, my dear boy, my love** kabilar.

Hurmat ma’nosini ifodalovchi undalmalarga kelsak, ular asosan so‘z va so‘z birikmalari yordamida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akbarova Z.A. O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: Filol.fan. nomz. ...dis.avtoref. –Toshkent, 2007.
2. Ahmedova N.SH. O‘zbek tili murojaat birliklari. –Toshkent, 2009.
3. Boshmonov M.B. Sodda gaplarning undalma, kirish va undovli shakl o‘zgarishlari // Til va adabiyoti ta’limi. №4. 1998.
4. Minina O.G. Obrasheniye v sovremenном angliskom yazike, Kommunikativno-pragmatischeskiy aspekt. Dis. ...kand. filol. nauk. (sokr. elektr. versiya). – Belgorod, 2002.